



ZAMONAVIY SIYOSIY FANLARDA SIYOSIY JARAYONLARNI TADQIQ ETISHDA QO‘LLANILUVCHI VA TADQIQOT USULI SIFATIDA FOYDALANILUVCHI DEFINITSİYALAR

Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti 3-kurs talabasi

Аннотация: В этой статье представлена информация о политических определениях, которые исследованы, обоснованы и изучены политические процессы в поле современной политической науки. Также информация есть дано о важном аспекты, особенности и объем эти определения. Точки подключения этих политические определения с политическим науки или отношения эти определения с каждым рассматриваются.

Ключевые слова: Политическая парадигма, политический метод(методология), политический анализ, политическая технология, политический процесс.

Abstract: This article provides information about political definitions that research, substantiate and study political processes in the field of modern political science. Also, information is given about the important aspects, features and scope of these political definitions. The connection points of these political definitions with political sciences or the relationship of these political definitions with each other are considered.

Keywords: Political paradigms, political method(methodology), political analysis, political technology, political process.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy siyosiy fanlar sohasida siyosiy jarayonlarni tadqiq etuvchi, ilmiy asoslovchi va o‘rganuvchi siyosiy defenitsiyalar haqida ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, mazkur defenitsiyalarning ahamiyatli qirralari, xususiyatlari va qo‘llanilish doiralari haqidagi ma‘lumotlar beriladi. Siyosiy fanlar bilan mazkur siyosiy defenitsiyalarning bog‘lanish nuqtalari yoki bu defenitsiyalarning o‘zlarining bir-biri bilan bog‘lanish aloqalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy paradigmalar, siyosiy metod(metodologiya), siyosiy tahlil, siyosiy texnologiya, siyosiy jarayon.

Kirish va dolzarbligi. Siyosiy fanlar sohasida asosiy bir qator fenomenlar mavjud. Ular: siyosiy paradigmalar, siyosiy metodlar(metodologiya), siyosiy tahlil,



siyosiy texnologiya hisoblanadi. Ushbu tushunchalarni siyosiy jarayonlarda qo‘llash tadqiqotchi uchun muayyan imkoniyatlarni yaratadi. Siyosiy tadqiqotning izchilligini, sifatlilikini, samaraliligini ta‘minlaydi. Hozirda dolzarb masala, ushbu yuqorida ta‘kidlangan tushunchalarning siyosiy fanlar bilan integratsiyalarini va shu tushunchalarning o‘zlari bilan aloqlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish muhim masaladir. Lekin bu kabi murakkab va ko‘p qirrali vazifani amalga oshirish uchun bu tushunchalar mohiyati, vazifasi, qo‘llanilish impulslari, ta‘sir obyekti, zarurat va taqazo etilishi kabi tomonlarini ilmiy jihatdan asoslash siyosiy fanlar sohasining muhim tomoni bo‘lib hal etilishi kerak bo‘lgan muammoli masaladir.

Tadqiqot usuli va metodologiya. Siyosatshunoslik fanining predmeti, ya‘ni uning nimani va qaysi ko‘lamda o‘rganishi haqidagi masala dastlab uning mustaqil fan va o‘quv kursi sifatida (shakllanishi) qaror topishi va institutsionallashuvi bilan bog‘liq. Bu borada 1948-yilda paryida UNESCO homiyligida o‘tgan, siyosatshunoslikning mazmuni va tarkibi masalalariga doir Xalqaro kollokvium muhimrol o‘ynadi.¹ Unda siyosatshunoslik predmeti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi haqida kelishib oldi:

1. Siyosat nazariyasi (siyosat nazariyasi va siyosiy fikr tarixi).
2. Ommaviy (davlat) institutlar (markaziy, mintaqaviy, mahalliy, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud), larning tarkibi va faoliyati.
3. Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki va ta‘siri shakllari (partiyalar, guruhlar, ijtimoiy fikr).
4. Xalqaro munosabatlar (xalqaro tashkilotlar va dunyo siyosati).²

Yuqorida keltirilgan siyosatshunoslik predmeti asosida uning obyekti tadqiq etila boshladi. Biroq savol tug‘iladi, “mazkur predmetlar qanday ilmiy asosga tayanadi yoki ularning ilmiy asosi, fundamenti mavjudmi? mavjud bo‘lsa qanday asoslanadi?” Bu borada mazkur soha bo‘yicha bir qator paradigmalarga asoslanadi va shu paradigmalarda siyosatshunoslikning keying bosqichlarini ochib beradi. Ular quyidagilar:

- 1) Normativ-siyosiy nazariyalar (Siyosiy ta‘limotlar tarixi)
- 2) Institutsionalizm va neoinstitutsionalizm paradigmasi.
- 3) Bixevarizm va bixevioralizm paradigmasi.
- 4) Ratsional tanlov yoki neyro-siyosat paradigmasi.
- 5) Strukturalizm va funksionalizm paradigmasi.

¹ Duverger M. Prologue: Political science, a Postwar Product (1947-1949). URL: <https://www.ipsa.org/about-ipsa/history> (Murojaat sanasi: 24.05.2023)

² V.P.Pugachev, A.I.Solovev. siyosatshunoslikka kirish: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Yangi asr avlodi” 2004. 16b.



- 6) Globalizm paradigmasi.
- 7) Tarixiy paradigma.
- 8) Sotsiologik paradigma.
- 9) Qiyosiy paradigma.

Shu nuqtai nazarda Siyosatshunoslik o'zi haqidagi bilimlarni turli shakllarda ishlab chiqadi:

- Xulosa shaklida;
- G'oyalar shaklida;
- Tushunchalar shaklida;
- Kategoriyalar shaklida;
- Paradigmalar shaklida;
- Tahlil usullari tarzida;
- Siyosiy texnologiyalar tarzida.³

Yuqorida keltirilgan paradigmalar Siyosatshunoslik uchun fundamental asos hisoblanadi. Ushbu fundamental asoslar o'zining metodologiyasini ya'ni uni tadqiq etish usullarini yaratadi. Bu usullar orqali Siyosatshunoslik ilmida siyosiy tadqiqotlar olib boriladi. Shuningdek, bu paradigmalar orqali Siyosatshunoslikning fan chegarasini va uning kasb sifatidagi maqomini ko'rsatib beradi. Zero, mazkur paradigmalarsiz siyosiy soha mavjudlik holatini saqlab qolishi va ilmiy tadqiqot izlanishini olib borishi murakkab va noaniq holatdir.⁴ Siyosat paradigmalari mohiyatini, tuzilishini va funksiyalarini bilmasdan turib, siyosat sohasi tadqiqotlarini olib boorish haqida gapirish mantiqq ziddir. Siyosiy paradigmalarning mohiyatini bilish, uning kelib chiqishini va rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Bu esa ilmiy tadqiqot uchun samarali yo'nalishni va aniq chegarani ko'rsatadi.⁵

Metod – bu siyosatchi uchun jihozlar qutisidir. U siyosatshunoslikda bilish obyektini bo'lib, yondashuv, tamoyil, qoida, me'yor, vosita va tartib tushunchalarini o'zaro bog'langan ta'siridir.⁶ Metod – keng ma'noda har qanday natijaga erishish, muayyan faoliyatni amalga oshirish, muayyan muammolarni hal qilishning ongli usuli.⁷ Metod jamiyat va madaniyatdagi kognitiv va amaliy faoliyatning eng xilma-xil turlarida aniq amalga oshirilgan, ifodalangan va boshqariladigan ideal rejaga

³ K.M.Mirzaaxmedov. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2024. 5b.

⁴ K.M.Mirzaaxmedov. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2024. 3-4b.

⁵ A.Qodirov. Siyosat falsafasi. Monografiya. – T.: TDYU. 2005. – 8b.

⁶ K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil: Ma'ruza. 2023. 1-2b.

⁷ Odilqoriyev.X.T, Razzaqov.X.D. Siyosatshunoslik: Darslik. "O'qituvchi -T, 2008. 54b.



asoslangan muayyan harakatlar ketma-ketligini nazarda tutadi.⁸ Bir qancha metodlarni o'zida jamlagan majmua metodologiya deyiladi.⁹ Siyosatshunoslik metodologiyasining rivojlanishi gumanitar fanlar metodologiyasining rivojlanishiga mos ravishda bosqichma-bosqich sodir bo'ladi. Siyosiy fan metodologiyasining rivojlanishida bir nechta bosqichlar mavjud:

- Mumtoz (XIX asrgacha), deduktiv, mantiqiy-falsafiy va axloqiy-aksiologik yondashuvlar bilan ajralib turadi;

- Institutsional (XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarida), tarixiy-qiyosiy va normativ-institutsional usullarga ustunlik berish;

- Bixevioristik (1950-1970-yillar), miqdoriy usullar qo'llanila boshlaganda, yangi va eski tadqiqot usullarini birlashtirgan;

- Postbixevioristik (XX asr oxiridan boshlab).¹⁰

Ushbu davrlar mobaynida quyidagi muammo va ularga metodlar shakllandi:

Mumtoz bosqich (XIX asrgacha)	
Muammolar:	Metodlar:
Hukmdorlar hokimiyati, uni mustahkamlash; Markazlashgan davlat tuzish; siyosat va axloq.	Deduktiv, mantiqiy-falsafiy, axloqiy-aksiologik.
Institutsional bosqich (XIX asr oxiri – XX asr boshi)	
Muammolari:	Metodlari:
Davlatni, siyosiy institutlarni o'rganish; Konstitutsion tuzumni qiyosiy tahlil qilish.	Tarixiy-qiyosiy, rasmiy-mantiqiy, me'yoriy-institutsional.
Bixevioristik bosqich (XX asrning 20-70-yillari)	
Muammolari:	Metodlari:
Umumiy manfaatlar bilan birlashgan individ va guruhlar; Hokimiyat bo'linishi;	Miqdoriy-metodlar; Qonuniyatlarni izlash; Bilimning tizimlashuvi;

⁸ Свободный словарь по политологии. URL: <https://politike.ru/termin/metod>. Html (Murojaat sanasi: 09.01.20230).

⁹ К.М. Mirzaaxmedov. Siyosatshunoslikdan atamalar lug'ati: Monografiya. Toshkent. 2020. 76b.

¹⁰ Жуковский А.Г. Методологические проблемы теории и практики в политической науке // Russian Journal of Education and Psychology. 2015. №10(54). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologicheskie-problemy-teorii-i-politiki-v-politicheskoy-nauke> (дата обращения: 07.01.2023).



Kishilarning siyosiy qarashlarini tashkil ertuvchi g'oyalar; Kishilarning faoliyatini yo'naltiruvchi institutlar; Manfaatdor guruhlar, OAV, elektorat xulq-atvori; "Uchinchi dunyo" mamlakatlarini tadqiq qilish, qiyosiy tadqiqotlar.	Qadriyatlar va empirik ma'lumotlarning farqlanishi va boshqa fanlar bilan integratsiya.
Postbixevioristik bosqich (XX asrning 70-yillaridan bugungi kungacha)	
Muammolari:	Metodlari:
Individ, jamoa, guruh o'rtasidagi kommunikatsiya; Ratsional tanlov; "Institutsional ta'qiq"larning individ xulqiga ta'siri; Qiyosiy tadqiqotlar, tranzitologiya.	Siyosiy germenevtika; Ratsinal tanlov nazariyasi; O'yinlar nazariyasi; Neointitutsionalizm; Qiyosiy metodlar.

Mazkur jadvalda siyosiy fanlar sohasida davrlashtirilgan tartibda siyosiy jarayonlardagi muammolar va shu muammolarni shu davrlar miqyosida hal etish metodlari keltiriladi.¹¹

"Tahlil – bu biror narsaning alohida jihatlari, xususiyatlari va ajralmas qismlarini ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladigan tadqiqot hamda olamni bilish jarayonida qo'llaniladigan usul. Fikran va amaliy narsa-hodisalarni tarkibiy bo'laklarga bo'lish usuli; har tomonlama ko'rib chiqish, tahlil etishdir"¹² Tahlil nafaqat qismlarga bo'lib o'rganadi, balki uning natijasini sintez ham qiladi, qismlarni bir butun shaklini yig'ib, bir butun qiluvchi tafakkur jarayonidir. Siyosiy tahlil. Professional siyosatchi uchun siyosiy tahlilni o'zlashtirish – kasb mahoratining muhim belgisidir. Siyosat sohasida vazifalarni hal qilish, maqsadga erishishning qulay usul va texnologiyalarni izlash zarurati siyosiy hodisalarni o'rganishga alohida yondashishni taqazo etuvchi definitsiyadir.¹³ Siyosiy tahlil – turli usullar majmui bo'lib, ular yordamida aniq siyosiy voqealar va siyosiy vaziyatni

¹¹ U.X.Bo'tayev. Siyosatshunoslik[Matn] : darslik/U.X.Bo'tayev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. – 108-109b.

¹² S.A.Jo'rayev, B.Xudoyberdiyev, B.Qosimova, A.Jalilov, O.Qosimov, S.Saidolimov, U.Muhammedov, S.Rustamboyev, S.G'ofurov. Xalqaro munosabatlar. – T.: "Akademiya", 2006. – 7b.

¹³ R.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova. Siyosiy tahlil: O'quv qo'llanma. – T.: TDSHU, 2020. – 20, 39b.



siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish, uni amalga oshirish va qo‘lda saqlash nuqtai nazaridan o‘rganish, uning ehtimoliy rivojlanishi haqida taxminlar qilish va malakali siyosiy qaror qabul qilishga imkon beradi.¹⁴ Hozirgi zamon siyosiy fanining ikki jihatini ko‘rish mumkin: nazariy va amaliy. Nazariy qismida siyosiy olamning umumiy funksional qonuniyatlari va uni o‘zgartirish vositalari, yo‘nalishlari o‘rganilsa, amaliy qismida hozirgi siyosiy amaliyotda dolzarb muammolarni yechish vosita va usullari ishlab chiqildi. Ayni paytda amliy siyosatshunoslikda ilmiy asoslar asosan tahlil vositasida keltiriladi. Xususan, siyosiy tahlil ana shunday vazifani bajarishda muhim ahamiyati bor. Siyosatshunoslikda siyosiy tahlil yondashuvlari mavjud. Ularga: tizimli tahlil yondashuvi, funksional tahlil yondashuvi, institutsinoal tahlil yondashuvi hisoblanadi.¹⁵

Siyosiy texnologiya yo‘naltirilgan faoliyat usul va jarayonlari yig‘indisi sifatida nafaqat maqsadga erishish vositalarini tartibga solidi, balki harakatlar ketma-ketligini mustahkamlaydi, subyektning muvofiq xulq - atvori algoritimini ishlab chiqadi. Aynan algoritimlar u yoki bu vazifa yechimining topishning optimal va samarali usullarini ta‘minlaydi va ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek olingan malakani uzatish va tarqatish imkonini beradi. Shu asnda siyosiy texnologiyalarni alohda mexanizmlar, texnikalar yoki o‘zaro harakat usullari bilan aralaashtirib yuborilmasligi kerak. Siyosiy texnologiyalar – bu real harakatlanuvchi subyekt tomonidan aniq maqsadga erishishga qaratilgan texnikalar qo‘llash jarayoni, faoliyat natijasi hamda optimal va tejamkor usullarni namoyon qiluvchi faoliyat usullari o‘zaro harakatining natijasi.¹⁶ Bugungi kunda siyosiy texnologiyalar bilan shug‘illanuvchi mutaxassislar “politteknologlar” deyiladi. Eng muhim bo‘lgan politteknolog faoliyatidagi quyidagi texnologiyalarni keltirishimiz mumkin:

1) Ehtimollar nazariyasi; 2) Matematik statistika; 3) Statistika qarorlar nazariyasi; 4) Avtomatik boshqaruv; 5) Axborot nazariyasi; 6) Chiziqli dasturlash; 7) Nochiziqli dasturlash; 8) Navbat nazariyasi; 9) Grafik nazariya; 10) Tizim injeneriyasi; 11) Algoritimlar nazariyasi; 12) O‘yinlar nazariyasi; 13) Inventalizatsiya boshqaruv modeli; 14) Kibernetik usul; 15) Tarmoqli rejalashtirish usuli; 16) Tashkilot nazariyasi; 17) Funksional va harakatlar tahlili; 18) SWOT-tahlili; 19) Indeks va balans usuli; 20) Sabab va oqibat sxemasi; 21) Bog‘liqlik diogrammasi; 22) Kuzatish, so‘rov, intervyu usuli; 23) Ekspert baholash usuli; 24)

¹⁴ J.Yusubov, M.Akromov, J.Atavullayev, B.Abdullayev. Amaliy siyosatshunoslik: o‘quv qo‘llanma. – T.: 2023. – 260b.

¹⁵ U.Bo‘tayeov. Siyosiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 6b.

¹⁶ R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDSHI, 2018. 39-40b.



Delfi usuli; 25) Voqealar tahlili; 26) Kontent tahlil; 27) Kognitiv xaritalash; 28) Morfologik tahlil; 29) Skript yaratish usuli; 30) Iyerarxialarni tahlil qilish usuli.

Yuqorida keltirilgan bir qator politexnologlar ko‘p foydakaniladigan usul va texnologiyalar hisoblanadi bugungi kunda 12000dan ortiq siyosiy tahlil usullari va texnologiyalari siyosiy fanlar sohasida aniqlangan va foydakanilib kelinmoqda.¹⁷

Muhokama va natijalar. Siyosiy tahlil borasida R.Polg shunday fikrni ilgari suradi: “Siyosiy tahlil siyosiy institutlarning funkcionallashuvi, siyosiy tizim turlari, turli siyosiy tuzum faoliyati, siyosiy hokimyat tabiati, va siyosiy qadriyatlar kabi masalalarni tahlil etadigan usular majmuidir” Amerikalik siyosatshunos R.Dal esa bu tushunchani umumiy prinsiolar qabul qilishda, siyosat falsafasining mavhum jihatlarini tushunishda, qo‘llaniluvchi atamadir deya fikrini izohlaydi. Amerikalik siyosatshunos Devid Iston esa siyosiy fikrlar va jarayonlarni turkumlashtirib o‘rganuvchi tushuncha hisoblanishini aytadi.¹⁸ A.I.Solovevning fikriga ko‘ra, siyosiy texnologiyalar muayyan makon va zamonda subyektning o‘z maqsad va vazifalarini eng qulay va samarali amalga oshirishga mo‘ljallangan hamda ketma – ket qo‘llaniladigan faoliyat usul, chora-tadbirlar, va yo‘llarni o‘zida umumlashtiradi. Bundan tashqari siyosiy texnologiyalar siyosat subyektiga hokimiyat bilan bog‘liq aniq vazifalarni hal etishda zarur bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘lib, uni siyosiy marketing deb nomlash mumkin.¹⁹ G.M.Anoxning fikricha, siyosiy texnologiyalar – siyosiy sohada kutilgan muvafaqqiyatli natijaga erishish va siyosiy jarayonning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan siyosiy hokimyatni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tartiblar, usullar, yo‘llar yig‘indisidir.²⁰ Taniqli nemis olimi M.Veberning fikricha, "siyosiy kurash jarayonlarida faqat siyosatchilargina asosiy o‘rinda turmaydi., balki, ularning ixtiyorida bo‘lgan yordamchi vositalari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.” V.V.Demidovichning fikricha, “Siyosiy texnologik jarayonda siyosiy ta’sir obyektini doimo insonlar bo‘lib, asosiy harakatlantiruvchi siyosiy kuchdir. Siyosiy texnologiya – insonlarga ta’sir etib, siyosiy xulq-atvorini o‘zgartirishning yo‘llari, usullari, tartiblari majmuidir”²¹ Siyosiy texnologiya

¹⁷ K.M.Miraaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Ma’ruza. 2024. 9-10b.

¹⁸ 12) U.Bo‘tayev. Siyosiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: “innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 9b.

¹⁹ Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов / А.И.Соловьев. – Москва: Аспект пресс, 2006. – С.415.

²⁰ Анохин.М.Г. Современные технологии эффективной политики: Учебное пособие. – Москва: РУДН, 2008. – С.6-7.


²¹ Вебер.М. Избранные произведения: Пер.с.нем. – Москва. Прогресс, 1990. – С. 646.



ma'lum siyosiy maqsadlarga erishishda turli vositlardan foydalanib amalga oshiriladigan usul va uslublar majmuidir.²²

Xulosa. Zamonaviy siyosiy fanlarda asosiy masala “Siyosiy paradigma + Siyosiy metod + siyosiy tahlil + siyosiy texnologiya = siyosat” formulasini ta'minlash hisoblanadi. Demak siyosiy fanlar sohasidagi paradigma. Metodlar, siyosiy tahlillar va siyosiy texnologiyalarni quyidagi shakllar defferensiyasi orqali ifodalashimiz mumkin²³:

Buni uy deb oladigan bo'lsak uning qismlarini ya'ni tag asos(fundament), tag asosga qurilgan poydevor, uying eshigi, va uying derazasi va uying ichi hamda uying tomi. Bular yaxlit uyni tashkil etadi. Agar bu qismlar bo'lmasa uy yashash uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Shu sababdan ham uy qismlariga ko'chirilgan siyosiy definitsiyalar bir-birini taqazo etadi va doimiy aloqada bo'ladi. Bu elementlarsiz siyosiy fanlar sohasi ilmiy asosda tadqiqot olib borishi mumkin emas hisoblanadi.



²² Siyosiy texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: "Complex print", 2022. – 7b.

²³ K.M.Mirzaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil. Ma'ruza. 2023. 7-8b.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) Duverger M. Prologue: Political science, a Postwar Product (1947-1949). URL: <https://www.ipsa.org/about-ipsa/history> (Murojaat sanasi: 24.05.2023)
- 2) V.P.Pugachev, A.I.Solovev. siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. – T.: “Yangi asr avlodi” 2004. 16b.
- 3) K.M.Mirzaaxmedov. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2024. 3-5b.
- 4) A.Qodirov. Siyosat falsafasi. Monografiya. – T.: TDYU. 2005. – 8b.
- 5) K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil: Ma'ruza. 2023. 1-2b.
- 6) Свободный словарь по политологии. URL: <https://politike.ru/termin/metod>. Html (Murojaat sanasi: 09.01.20230).
- 7) Odilqoriyev.X.T, Razzaqov.X.D. Siyosatshunoslik: Darslik. “O'qituvchi -T, 2008. 54b.
- 8) Жуковский А.Г. Методологические проблемы теории и практики в политической науке//Russian Journal of Education and Psychology. 2015. №10(54). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologicheskie-problemy-teorii-i-politiki-v-politicheskoy-nauke> (дата обращения: 07.01.2023).
- 9) K.M.Mirzaaxmedov. Siyosatshunoslikdan atamalar lug'ati:Monografiya. Toshkent. 2020.76b.
- 10) Bo'tayev,U.X. Siyosatshunoslik [Matn] : darslik/U.X.Bo'tayev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. – 108-109b.
- 11) S.A.Jo'rayev, B.Xudoyberdiyev, B.Qosimova, A.Jalilov, O.Qosimov, S.Saidolimov, U.Muhammedov, S.Rustamboev, S.G'ofurov. Xalqaro munosabatlar. – T.: “Akademiya”, 2006. – 7b.
- 12) R.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova. Siyosiy tahlil: O'quv qo'llanma. – T.: TDSHU, 2020. – 20, 39b.
- 13) J.Yusubov, M.Akromov, J.Atavullayev, B.Abdullayev. Amaliy siyosatshunoslik: o'quv qo'llanma. – T.: 2023. – 260b.
- 14) U.Bo'tayev. Siyosiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: “innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 6, 9b.
- 15) R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2018. 39-40b.
- 16) K.M.Miraaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Ma'ruza. 2024. 9-10b.
- 17) Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для студентов вузов / А.И.Соловьев. – Москва: Аспект пресс, 2006. – С.415.
- 18) Анохин.М.Г. Современные технологии эффективной политики: Учебное пособие. – Москва: РУДН, 2008. – С.6-7.
- 19) Вебер.М. Избранные произведения: Пер.с.нем. – Москва. Прогресс, 1990. – С. 646.
- 20) Siyosiy texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: “Complex print”, 2022. – 7b.
- 21) K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Ma'ruza. 2023. 7-8b.